

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

№6, 2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI



В Е С Т Н И К

ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе

редакционно-издательского отдела Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста: О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алуюева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии с прилагаемыми правилами, просим направлять по адресу:

*100109, Ташкент, ул. Фароби, 2, Главный учебный корпус
ТМА, 4-й этаж, комната 444.*

*Контактный телефон: 214 90 64
e-mail: rio-tma@mail.ru
rio@tma.uz*

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

*Отпечатано на ризографе редакционно-издательского
отдела ТМА.*

100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА №6, 2025

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Главный редактор

проф. А.К. Шадманов

Заместитель главного редактора

проф. О.Р.Тешаев

Ответственный секретарь

проф. Ф.Х.Иноятова

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Силина Т. (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Зуева Л. (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назиров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

доц. Рахматуллин А.Р. (Россия)

проф. Саломова Ф.И.

проф. Трескач С. (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА

Дмн. Абдуллаева Р.М.

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент) проф.

Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

КЛИНИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА	CLINICAL MEDICINE	
Жуманазаров С.Б., Жаббаров О.О. ЎЗБЕК ПОПУЛЯЦИЯСИДА СУРУНКАЛИ ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТ РИВОЖЛАНИШИДА TNF- α ГЕНИ G-308А ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ ТАРҚАЛИШ ДАРАЖАСИНИ ЎРГАНИШ	Jumanazarov S.B., Jabbarov O.O. STUDY OF THE SPREAD OF G-308A POLYMORPHISM OF THE TNF-A GENE IN THE DEVELOPMENT OF CHRONIC GLOMERULONEPHRITIS IN THE UZBEK POPULATION	49
Zubaydullaeva M.T., Makhmudova U.R., Majidov Sh.X., Karimova M.T. METABOLIK SINDROMI BILAN BEMORLARDA TOMIR YOSHINI BAHOLASH	Zubaydullaeva M.T., Makhmudova U.R., Majidov Sh.Kh. Karimova M.T. ASSESSMENT OF VASCULAR AGE IN PATIENTS WITH METABOLIC SYNDROME	52
Zubaydullaeva M.T., Mirzayev A.M., Saidahmadov S.S. INFARKTDAN KEYINGI KARDIOSKLEROZ BILAN BEMORLARDA VEGETATIV BOSHQARUV TURLARINI YURAK RITMIGA TA'SIRINI O'RGANISH	Zubaidullaeva M.T., Mirzaev A.M., Saidahmadov S.S. STUDY OF TYPES OF AUTONOMIC REGULATION AND THEIR INFLUENCE ON HEART RATE IN POSTINFARCTION CARDIOSCLEROSIS	56
Зубайдуллаева М.Т., Шукурджанова С.М., Нуритдинова Н.Б. ВЗАИМОСВЯЗЬ НАРУШЕНИЙ СЕРДЕЧНОГО РИТМА У БОЛЬНЫХ С ГИПЕРТЕНЗИОННОЙ БОЛЕЗНЬЮ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ТИПА РЕМОДЕЛИРОВАНИЯ МИОКАРДА	Zubaydullaeva M.T., Shukurdzhanova S.M., Nuritdinova N.B. STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN CARDIAC ARRHYTHMIA IN PATIENTS WITH HYPERTENSION DEPENDING ON THE TYPE OF MYOCARDIAL REMODELING	59
Каримова М.Т., Имамova И.А., Абдурахимова З.К. ОСОБЕННОСТИ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЫ У ДЕТЕЙ С АСКАРИДОЗОМ	Karimova M.T., Imamova I.A., Abdurakhimova Z.K. FEATURES OF BRONCHIAL ASTHMA IN CHILDREN WITH ASCARIASIS	63
Махмудова М.С., Ахмедова Д.Т., Нуриллаева Н.М. КОМБИНИРОВАННАЯ ГИПОЛИПЕМИЧЕСКАЯ ТЕРАПИЯ ПРИ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА С ГИПЕРТРИГЛИЦЕРИДЕМИЕЙ: КЛИНИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА СТАТИНОВ И ФИБРАТОВ	Makhmudova M.S., Akhmedova D.T., Nurillaeva N.M. COMBINATION LIPID-LOWERING THERAPY IN ISCHEMIC HEART DISEASE WITH HYPERTRIGLYCERIDEMIA: CLINICAL ADVANTAGES OF STATINS AND FIBRATES	65
Musaeva L.J., Zufarov P.S., Pulatova N.I., Akbarova D.S. EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF EMPAGLIFLOZIN IN THE TREATMENT OF CHRONIC HEART FAILURE IN OUTPATIENT AND CLINICAL PRACTICE	Musaeva L.J., Zufarov P.S., Pulatova N.I., Akbarova D.S. SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGINI DAVOLASHDA EMPAGLIFLOZINNING SAMARADORLIGINI AMBULATOR VA KLINIK AMALIYOT SHAROITLARIDA BAHOLASH	69
Nurillaeva N.M., Yarmukhamedova D.Z. ARTERIAL GIPERTENZIYA: DAVOLASHGA MARKAZIY SIMPATOLITIKLAR ASOSIDA ZAMONAVIY YONDASHUV	Nurillaeva N.M., Yarmukhamedova D.Z. ARTERIAL HYPERTENSION: MODERN APPROACHES TO TREATMENT BASED ON CENTRAL SYMPATHOLYTICS	72
Нуриллаева Н.М., Омаров Х.Б. АССОЦИАТИВНЫЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РИСКА ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА	Nurillaeva N.M., Omarov Kh.B. ASSOCIATIVE ANALYSIS OF RISK FACTORS FOR ISCHEMIC HEART DISEASE	75
Нуриллаева Н.М., Махмудова У.Р., Зубайдуллаева М.Т., Кенжаев С.Р. ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ЛЁГочНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ У БОЛЬНЫХ С СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ	Nurillaeva N.M., Makhmudova U.R., Zubaydullaeva M.T., Kenzhaev S.R. FEATURES OF THE COURSE OF PULMONARY HYPERTENSION IN PATIENTS WITH HEART FAILURE	78
To'raqulov B.X., To'raqulova Q.X. SURUNKALI YURAK ETISHMOVCHILIGI BO'LGAN BEMORLARDA COVID-19 DAN KEYIN UZOQ VAQT DAVOMIDA LIPID SPEKTRI PARAMETRLARINING O'ZGARISHI VA ULARNING OLDINI OLIISH AHAMIYATI	Turakulov B.Kh., Turakulova K.X. CHANGES IN LIPID SPECTRUM PARAMETERS IN PATIENTS WITH CHRONIC HEART FAILURE IN THE REMOTE PERIOD AFTER COVID-19 AND THEIR PREVENTIVE SIGNIFICANCE	82
Турсунова Л.Д., Жаббаров О.О. БУЙРАК ФУНКЦИОНАЛ ҲОЛАТИГА КўРА АРТЕРИАЛ БОСИМ СУТКАЛИК РИТМИ	Tursunova L.D., Jabbarov O.O. THE DAILY CYCLE OF BLOOD PRESSURE IN RELATION TO THE HEALTH OF THE KIDNEYS	86
Xidoyatova M.R., Kurakboyev D.I. TIZIMLI QIZIL BO'RICHA BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA KUNLIK QON BOSIMI MONITORINGI	Khidoyatova M.R., Kurakboev D.I. DAILY MONITORING OF ARTERIAL PRESSURE IN PATIENTS WITH SYSTEMIC LUPUS ERYTHEMATOSUS	90

SURUNKALI YURAK ETISHMOVCHILIGI BO'LGAN BEMORLARDA COVID-19 DAN KEYIN UZOQ VAQT DAVOMIDA LIPID SPEKTRI PARAMETRLARINING O'ZGARISHI VA ULARNING OLDINI OLISH AHAMIYATI

To'raqulov B.X., To'raqulova Q.X.

ИЗМЕНЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛИПИДНОГО СПЕКТРА У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ В ОТДАЛЁННЫЙ ПЕРИОД ПОСЛЕ COVID-19 И ИХ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Туракулов Б.Х., Туракулова К.Х.

CHANGES IN LIPID SPECTRUM PARAMETERS IN PATIENTS WITH CHRONIC HEART FAILURE IN THE REMOTE PERIOD AFTER COVID-19 AND THEIR PREVENTIVE SIGNIFICANCE

Turakulov B.Kh., Turakulova K.X.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Цель: изучение особенностей клинического течения хронической сердечной недостаточности в эпоху пост-COVID-19. **Материал и методы:** под наблюдением находились 109 больных, с хронической сердечной недостаточностью (ХСН) ФК II-III, ИБС. В основную группу вошли 74 пациента с ИБС, как осложнение COVID-19, имевших ХСН ФК II-III. Контрольную группу составили 35 пациентов с ХСН, у которых по анамнезу и лабораторным данным COVID-19 не выявлен. **Результаты:** разница между содержанием общего холестерина при первичном осмотре составила 21,2% ($p<0,01$) у больных с ХСН ФК II и 22,4% – у больных ХСН ФК III ($p<0,01$), у больных с ХСН ФК III – 12,4% ($p<0,05$), разница между содержанием ХМ-ЛПНП у больных ХСН ФК II – 22,8% ($p<0,01$), у больных ХСН ФК III – 24,6% ($p<0,01$). **Выводы:** необходимо усилить внимание к диспансерному процессу в первичной системе при контроле липидного спектра у пациентов, COVID-19.

Ключевые слова: хроническая сердечная недостаточность, посткоронавирусный период, липидный спектр.

Objective: To study the clinical features of chronic heart failure in the post-COVID-19 era. **Material and methods:** 109 patients with chronic heart failure (CHF) FC II-III, coronary artery disease were observed. The main group included 74 patients with coronary artery disease as a complication of COVID-19 who had CHF FC II-III. The control 2nd group consisted of 35 patients with the same diagnosis, in whom COVID-19 was not detected according to the anamnesis and laboratory data. The results of the 12-month follow-up of patients in both groups were also studied. **Results:** The difference in total cholesterol content at the initial examination was 21.2% ($p<0.01$) in patients with CHF FC II and 22.4% in patients with CHF FC III ($p<0.01$), in patients with CHF FC III - 12.4% ($p<0.05$), the difference in the content of CM-LDL in patients with CHF FC II was 22.8% ($p<0.01$), in patients with CHF FC III - 24.6% ($p<0.01$). **Conclusions:** It is necessary to increase attention to the dispensary process in the primary system when monitoring the lipid spectrum in patients with COVID-19.

Key words: chronic heart failure (CHF), post-coronavirus period, lipid spectrum.

Ма'lumki, virus infeksiyasi qon tomirlar devorida mahalliy yalig'lanish va sistemali yallig'lanishga qarshi kuchli namoyon bo'lgan javob reaksiyasi natijasida o'tkir koronar sindrom, aritmiya, yurak yetishmovchiligining dekompensatsiyasi va tromboembolik asoratlarga olib keladi. COVID-19 infeksiyasi yuqoridagi asoratlarni hamda yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining (YQTTK) kechishini va hayot uchun xavfli bo'lgan qo'shimcha asoratlarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin [2,3,6]. COVID-19 fonida surunkali yurak yetishmovchiligi (SYuYe) bor bo'lgan bemorlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar, yurak qon tomir tizimidagi (YQTT) qisqa va uzoq muddatli o'zgarishlar hamda SYuYening og'irlik darajasi va klinik kechishining bosqichlari yetarlicha o'rganilmagan. Virus SARS-CoV-2 kardiomiotsitlarni to'g'ridan-to'g'ri zararlaydi, buning natijasida SYuYening dekompensatsiyasi, shok holati hamda to'satdan koronar olim yuzaga keladi [4,7]. Oxirgi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, COVID-19 o'tkazgan YuQTT kasalligi bor bo'lgan bemorlarda har xil turdagi aritmiyalarning paydo bo'lish xavfi ortadi. Uchrashi mumkin bo'lgan aritmiyalar orasida bo'lmachalar fibrillyatsiyasi (BF), supraventrikulyar va qorinchalar ekstrasistoliyasi, qorinchalar taxikardiyasi (QT) va bradiaritmialar katta qismni tashkil qiladi [1,5].

Tadqiqot maqsadi

Surunkali yurak yetishmovchiligi FS II va III bilan asoratlangan yurak ishemiya kasalligi (YuIK) stabil

zo'riqish stenokardiysi FS II va III bilan kasallangan bemorlarning koviddan keyingi davrdagi SYuYe kechishining o'ziga xosligini va lipid spektridagi o'zgarishlarni o'rganish.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot uchun Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida davolangan YuIK stabil zo'riqish stenokardiysi FS II va III, asorati surunkali yurak yetishmovchiligi FS II, III bo'lgan 109 nafar bemor olindi. 1-guruhni 2020-2021 yillarda COVID-19 o'tkazgan YuIK bilan og'irgan 74 nafar bemor tashkil qildi. 1-guruhning COVID-19 o'tkazgan davr oralig'i $4\pm 0,43$ oyni tashkil qildi. 2-guruhga COVID-19 o'tkazmagan YuIK bilan og'irgan 35 nafar bemor tanlab olindi. Barcha bemorlarda quyidagi tekshiruvlar o'tkazildi: shikoyatini baholash, anamnez yig'ish, obyektiv statusini o'rganish, yurak qisqarishlar soni (YuQS), puls (Ps), qon bosimi, kardiologik bemorlarda qabul qilingan tekshiruvlar: umumiy qon tahlili, umumiy peshob tahlili, koagulogramma, lipid spektri, ExoKG, EKG monitoring Xolter bo'yicha. Xolter monitoring (XM) 24 soatlik EKG yozuvidan olingan 1 minutda o'rtacha yurak qisqarishlar soni, YuQSning kunduzgi va tungi o'rtacha ko'rsatkichlari, yurak ritmi va o'tkazuvchanlikning buzilishi belgilari, sirkad indeksi, QT intervali davomiyligi ko'rsatkichlari asosida yurak ritmi va o'tkazuvchanligining buzilishi o'rganildi. O'rganilayotgan bemorlarning barchasida koronavirus uchun PZR testi va qonda SARS-CoV-2 uchun IgG

aniqlandi. O'rganilayotgan bemorlarning klinik holati ShOKS (Maryeev, 2000 yil) shkalasi bo'yicha, hayot sifati ko'rsatkichari Minnesota savolnomasi yordamida baholandi. Ushbu bemorlarning barchasi qayta ko'rikda tekshiruvlardan o'tkazildi. Tadqiqot uchun bosh miya qon aylanishi o'tkir buzilishi, qandli diabet og'ir kechishi, o'pka surunkali obstruktiv kasalligi xuruj davri va yurak ritm buzilishining murakkab turi bor bo'lgan bemorlar olimadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi

Tadqiqotga olingan YuIK/SYuYe mavjud bemorlar dastlabki ko'rik vaqtida anamnezida koronavirus infeksiyasini o'tkazganligi bo'yicha ikki guruhga bo'lingan: COVID-19 bilan kasallangan bemorlar asosiy guruhni va koronavirus infeksiyasi bilan kasallanmaganlar taqqoslash guruhini tashkil etdi. 1-guruhning COVID-19 o'tkazgan davr oraligi 4±0,43 oyni tashkil qildi. 2-guruhga COVID-19 o'tkazmagan YuIK bilan og'irgan va SYuYe FS

II va III bilan asoratlangan 25 nafar bemor tanlab olindi. 1-guruh bemorlarning o'rtacha yoshi 64,2±9,3ni, 2-guruhniki 67±11,1 yoshni tashkil qildi.

Tadqiqotga olingan ikkala guruh bemorlari qayta ko'rik va tekshiruvlardan o'tkazildi. Bunda birinchi marta ko'rilgan asosiy guruxdagi bemorlarning 73 tasi, nazorat guruxidagi bemorlarning 34 tasi ishtirok etdi, qayta ko'rikda ishtirok etmagan 1 nafar asosiy guruxdagi bemor statsionarga yotishdan bosh tortdi, nazorat guruxidagi 1 nafar bemorda koronavirus infeksiyasi bilan kasallanishni o'tkazganligi tufayli tadqiqotdan chiqarildi. 12 oydan keyingi qayta ko'rikda bemorlar standart tekshiruvlardan o'tkazildi. Bunda bemorlar qayta ko'rik-kacha statinlar, antiagregantlar va AAF-ingibitorlarini doimiy qabul qildin. Dorining doimiy ichilishini telefon orqali va hudud shifokori bilan birgalikda nazorat qilindi (1-jadval).

1-jadval

Tekshirilayotgan bemorlarning dastlabki va 12 oydan keyingi qayta ko'rikdagi umumiy xarakteristikasi, abs (%), M±m

Ko'rsatkich	1-guruh, n=74	1-guruh (12 oydan keyin), n=73	2-guruh, n=35	2-guruh (12 oydan keyingi), n=34
Yoshi	64,2±9,3	64,1±9,2	67,0±11,1	67,0±9,1
Erkak/Ayol	39/35 (54,5/45,5)	38/35 (53,5/46,5)	18/17 (52/48)	16/16 (50/50)
YuIK. Stabil zo'riqish stenokardiyasi	74 (100)	73 (100)	35 (100)	34 (100)
Gipertoniya kasalligi	74 (100)	44 (100)	35 (100)	34 (100)
Arterial gipertenziya				
I daraja	17 (22,7)	34 (46,5)	10 (40)	18 (75)
II daraja	27 (36,4)	24 (32,6)	9 (36)	6 (25)
III daraja	30 (40,9)	15 (20,1)	6 (24)	-
Qandli diabet 2-tur	32 (43,5)	32 (44,5)	14 (40)	14 (41)
TMI, kg/m ²	32,1±0,78	31,1±0,68	28,1±1,94	27,1±1,04
Ortiqcha vazn	27 (36,7)	16 (36,7)	14 (40)	14 (40)
Semizlik	47 (59,1)	26 (59,1)	14 (40)	14 (40)
I daraja	22 (46,1)	22 (47,1)	7 (50)	7 (50)
II daraja	15 (30,8)	15 (30,8)	4 (30)	4 (30)
III daraja	10 (23,1)	10 (23,1)	3 (20)	3 (20)
SYuYe				
FS II NYHA bo'yicha	36 (47,73)	36 (47,83)	18 (52)	17 (50)
FS III NYHA bo'yicha	38 (52,2)	37 (52,3)	17 (48)	17 (50)

Dori vositalarini barcha bemorlar doimiy ichib yurishiga qaramasdan qayta ko'rik vaqtida asosiy guruxdagi anamnezida koronavirus bilan kasallanish o'tkazgan bemorlarda qon bosimining ko'tarilish epizodlari kuzatilib turganligi aniqlandi (anamnezidan 38% bemorlarda). Qayta ko'rikdagi bemorlarning qon bosimi darajalari solishtirilganda asosiy guruxdagi bemorlarning dastlabki ko'rikdagi natijalariga nisbatan arterial gipertenziya 3-daraja qayta ko'rikda 50,2%ga kamayganligini ko'rish mumkin, lekin to'liq normotenziviyaga erishish

ko'rsatkichi past bo'ldi, nazorat guruxidagi bemorlarda qayta ko'rikda arterial gipertenziya 3-darajali bemorlar aniqlanmaydi (adekvat gipotenziv davo tanlanganligi fonida) (1-jadval).

Bemorlarda dastlabki tekshiruvda o'tkazilgan laboratoriya natijalariga ko'ra ularning lipid spektridagi o'zgarishlar quyidagicha bo'ldi: asosiy guruh va nazorat guruxidagi bemorlarning dastlabki ko'rikdagi umumiy xolesterin miqdori o'rtasidagi farq SYuYe FS II li bemorlarda - 21,2% ga ($p < 0,01$), SYuYe FS IIIli be-

morlarda - 22,4% ga ($p<0,01$), triglitserit miqdori o'rtasidagi farq SYuYe FS IIIli bemorlarda - 11,6% ga ($p<0,05$), SYuYe FS IIIli bemorlarda - 12,4% ga ($p<0,05$), XM-PZLP miqdori o'rtasidagi farq SYuYe FS IIIli bemorlarda - 22,8% ga ($p<0,01$), SYuYe FS IIIli bemorlarda - 24,6% ga ($p<0,01$), XM-YuZLP miqdori o'rtasidagi farq SYuYe FS IIIli bemorlarda - 16,8% ga ($p<0,01$), SYuYe FS IIIli bemorlar-

da - 18,6% ga ($p<0,01$), teng bo'ldi va natijalar ishonchiligi isbotlandi. Lipid spektri natijalariga ko'ra COVID-19 o'tkazgan asosiy gurux bemorlarda ateroskleroz rivojlanish xavfi hisoblangan lipidlar miqdori yuqoriligi ko'rinadi. Bemorlarning lipid spektri tekshirilganda ularning barchasi statinlar qabul qilayotgan edi (2-jadval).

2-jadval

Bemorlarning lipid spektridagi o'zgarishlar, mmol/l

Ko'rsatkichlar	Bemorlarning guruxlari	1-gurux	2-gurux	p
Umumiy xolesterin	SYuYe FS II	n=36; 4,3±0,17	n=18; 3,5±0,14	<0,01
	SYuYe FS III	n=38; 4,9±0,18	n=17; 4,1±0,2	<0,01
Triglitsserid	SYuYe FS II	n=36; 1,7±0,13	n=18; 1,3±0,19	<0,05
	SYuYe FS III	n=38; 1,8±0,16	n=17; 1,4±0,14	<0,05
XM-PZLP	SYuYe FS II	n=36; 3,9±0,17	n=18; 2,2±0,13	<0,01
	SYuYe FS III	n=38; 4,2±0,17	n=17; 2,5±0,14	<0,01
XM-YuZLP	SYuYe FS II	n=36; 0,9±0,08	n=18; 1,2±0,06	<0,01
	SYuYe FS III	n=38; 0,8±0,05	n=17; 1,1±0,09	<0,01

12 oydan keyingi qayta ko'rikda bemorlardagi lipid spektri taxlil qilinganda quyidagi natijalar olindi: 12 oydan keyingi umumiy xolesterin, triglitserit, XM-PZLP lar miqdori o'rtasida ishonchli farq aniqlanadi; XM-YuZLP ning miqdori o'rtasida ishonchli farq aniqlanmaydi. Bunda 1-gurux bemorlarida dinamik yaxshilanish kuza-

tilgan, ammo koronavirus bilan kasallanmagan nazorat guruhidagi bemorlarga qaraganda hamon yuqoriligi qolmoqda. Bu natijadan shuni aniqlash mumkinki koronavirus bilan kasallangan bemorlarda dislipidemik o'zgarishlar uzoq vaqt saqlanib qoladi (3-jadval).

3-jadval

Lipid spektrining parametrlari, mmol/l

Ko'rsatkichlar	Bemorlar-ning guruhlari	1-guruh		2-guruh	
		dastlabki ko'rik	12 oydan keyingi	dastlabki ko'rik	12 oydan keying
Umumiy xolesterin	SYuYe FS II	n=36; 4,3±0,17	n=36; 3,5±0,12*	n=18; 3,5±0,14	n=17; 2,9±0,14*
	SYuYe FS III	n=38; 4,9±0,18	n=37; 3,91±0,18*	n=17; 4,1±0,2	n=17; 3,25±0,2*
Triglitsserid	SYuYe FS II	n=36; 1,7±0,13	n=36; 1,4±0,12*	n=18; 1,3±0,19	n=17; 1,07±0,11*
	SYuYe FS III	n=38; 1,8±0,16	n=37; 1,5±0,11*	n=17; 1,4±0,14	n=17; 1,18±0,1*
XM-PZLP	SYuYe FS II	n=36; 3,9±0,17	n=36; 2,8±0,1*	n=18; 2,2±0,13	n=17; 1,8±0,1*
	SYuYe FS III	n=38; 4,2±0,17	n=37; 3,4±0,12*	n=17; 2,5±0,14	n=17; 2,0±0,11*
XM-YuZLP	SYuYe FS II	n=36; 0,9±0,08	n=21; 1,1±0,1*	n=18; 1,2±0,06	n=17; 1,22±0,08
	SYuYe FS III	n=38; 0,8±0,05	n=22; 1,1±0,05*	n=17; 1,1±0,09	n=17; 1,19±0,07

Izoh. * $p<0,05$;

Xulosa

1. Asosiy guruhdagi bemorlarning tekshiruv natijalariga ko'ra dastlab qon bosimi darajasi farqi aniqlangan va bu ko'rsatkich qayta ko'rikda ham saqlanganligi aniqlandi, bunga ko'ra koronavirus infeksiyasi ushbu bemorlarning klinik holatini yomonlashtirish va davolashning murakkablashishiga sabab bo'lishi aniqlandi, undan tashqari rezistent AG rivojlanish xavfi ham ortdi, ushbu natijaga ko'ra arterial gipertenziyani ambulatoriya sharoitda nazorat qilish asosiy guruhdagi bemorlarda biroz qiyinchilik va o'ziga xos yondashuvni talab qiladi.

2. Bunda oilaviy shifokor ushbu bemorlar uchun sog'lomlashtirish va davolashning individual rejasini

ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Lipid spektri natijalari taxlil qilinganda ham COVID-19 infeksiyasining dislipidemiya olib kelishi va bu jarayonning 12 oydan keyin ham saqlanganligi aniqlandi. Shunga ko'ra ushbu kasallarda YIK va SYuYening klinik kechish va gospitalizatsiya soni oshishi prognoz qilindi.

3. Ushbu prognozdan kelib chiqib asosiy guruhdagi bemorlarning lipid spektrini nazorat qilishda birlamchi tizimda dispanserizatsiya jarayoniga e'tiborni kuchaytirish talab qilinadi, ya'ni lipid spektri nazorati ushbu bemorlar uchun 1 yilda 6-8 martagacha tekshirish tavsiya qilinadi.

Adabiyotlar

1. Коган Е.А., Березовский Ю.С., Благова О.В. и др. Миокардит у пациентов с COVID-19, подтвержденный иммуногистохимически // Кардиология. – 2020. – 60, №7. – С. 4-10. doi:10.18087/cardio.2020.7.n1209.
2. Потешкина Н.Г., Лысенко МА., Ковалевская Е.А. и др. Поражение сердца у больных коронавирусной инфекцией COVID-19 // Артериальная гипертензия. – 2020. – 26, №3. – С. 277-287. doi:10.18705/1607-419X-2020-26-3-277-287/
3. Arachchillage D.R. J., Laffan M. Abnormal Coagulation parameters are associated with poor prognosis in patients with novel coronavirus pneumonia // J. Thromb. Haemost. – 2020. – 18, №5. – P. 1233-1234. doi: 10.1111/jth.14820.
4. Eliezer M., Hautefort Ch., Hamel A-L. et al. Sudden and Complete Olfactory Loss Function as a Possible Symptom of COVID-19 // J.A.M.A. Otolaryngol. Head Neck. Surg. – 2020. doi:10.1001/jamaoto.2020.0832.
5. Guo T., Fan Y., Chen M. et al. Cardiovascular Implications of Fatal Outcomes of Patients With Coronavirus Disease 2019 (COVID-19) // J.A.M.A. Cardiol. – 2020. – 5, 7. – P. 811-818. doi:10.1001/jamacardio.2020.1017
6. Hanley B., Lucas S.B., Youd E. et al. Autopsy in suspected COVID-19 cases // J. Clin. Pathol. – 2020. – 73, №5. – P. 239-242. doi:10.1136/jclinpath-2020-206522.
7. Xu X., Barth R.F., Buja L.M. A call to action: the need for autopsies to determine the full extent of organ involvement associated with COVID-19 infections // Chest. – 2020. doi: 10.1016/j.chest.2020.03.060.

COVID-19 DAN KEYINGI UZOQ MUDDATDA SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI MAVJUD BEMORLARNING LIPID SPEKTRIDAGI O'ZGARISHLAR VA UNING PROFILAKTIK AHAMIYATI

To'raqulov B.X., To'raqulova Q.X.

Maqsad: COVID-19dan keyingi davrda surunkali yurak etishmovchiligining klinik kechishini o'rganish. **Material va usullar:** surunkali yurak etishmovchiligi (CHF) FK II-III, yurak ishemik kasalligi bo'lgan 109 bemor kuzatildi. Asosiy guruhga CHF FC II-III bilan kasallangan COVID-19 asorati sifatida koronar arteriya kasalligi bilan og'rikan 74 nafar bemor kirdi. Nazorat guruhi 2 bir xil tashxisga ega 35 nafar bemordan iborat bo'lib, ularda kasallik tarixi va laboratoriya ma'lumotlariga ko'ra COVID-19 aniqlanmagan. **Natijalar:** dastlabki tekshiruvda umumiy xolesterin miqdori o'rtasidagi farq CHF FC II bilan og'rikan bemorlarda 21,2% ($p<0,01$) va CHF FC III bilan og'rikan bemorlarda 22,4% ($p<0,01$), CHF FC III bilan og'rikan bemorlarda - 12,4% ($p<0,05$), CM-LDFC2 bilan og'rikan bemorlarda II8FC2 tarkibi o'rtasidagi farq ($p<0,01$), CHF FC III bo'lgan bemorlarda - 24,6% ($p<0,01$). **Xulosa:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda lipid spektrini kuzatishda birlamchi tizimdagi dispanser jarayoniga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Kalit so'zlar: surunkali yurak etishmovchiligi, COVID-19dan keyingi davr, lipid spektri.

Mualliflar haqida ma'lumot

To'raqulov Bahodir Xazratqul o'g'li, 1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va preventiv tibbiyot asoslari kafedrasida assistenti, Toshkent tibbiyot akademiyasi. e-mail: btoraqulov95@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0005-3630-5716>

To'raqulova Qurbonoy Xasan qizi, Oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasida assistenti, Toshkent tibbiyot akademiyasi. e-mail: qurbonoyxidirboyeva@gamil.com, <https://orcid.org/0009-0008-8233-8561>

